

TINCHLIK: HAR BIR YURAKDAN BOSHLANADIGAN GLOBAL BARQARORLIK

Xamrokulova Xosiyatbonu Komilovna

Oxford International school

phone: +998915267711

Annotation: *Ushbu maqolada butun dunyodagi holatlar bilan taqqoslangan holda odamlarga shukur qilishni o‘rgatuvchi muhim omillardan biri bo‘ladi. Jahonda tinchlik o‘ynayotgan rol juda kattaligini ko‘rsatib berish uchun ham bu maqola yozilayapti. Albatta tinch va notinch davlatlarni taqqoslaganda juda katta farqni sezasiz. Tinchlik insonlar ko‘zidagi qo‘rquvni sindira oladigan, har tomonlama qalqon bo‘la oladigan yagona qiroldir. Bu maqolada tinchlikni qadriga yetish kerakligi uqtirilgan chunki bu bizning xalqqa berilgan bir baxtdir.*

Kalit so‘zlar: *Tinchlik, O‘zbekiston, dunyo, Isroil, Falastin, bolalar, Ukraina, Sudan, urush, otishma,*

Аннотация: *В данной статье это будет одним из важных факторов, которые учат людей быть благодарными, по сравнению с ситуацией во всем мире. Эта статья пишется, чтобы показать великую роль мира во всем мире. Конечно, если вы сравните мирные и беспокойные страны, вы заметите огромную разницу. Мир — единственный король, который может сокрушить страх в глазах людей и может быть щитом во всех отношениях. В этой статье говорится, что мир следует ценить, потому что это благословение, данное нашему народу.*

Ключевые слова: *Мир, Узбекистан, мир, Израиль, Палестина, дети, Украина, Судан, война, расстрел.*

Annotation: *In this article, it will be one of the important factors that teach people to be thankful, compared to the situation around the world. This article is being written to show the great role of peace in the world. Of course, when you compare peaceful and troubled countries, you will notice a huge difference. Peace is the only king who can break the fear in the eyes of people and can be a shield in every way. In this article, it is said that peace should be appreciated because it is a blessing given to our people.*

Key words: *Peace, Uzbekistan, the world, Israel, Palestine, children, Ukraine, Sudan, war, shooting.*

Tinchlik—bu butun dunyodagi har bir davlatning alishmas va bebaho xazinasini desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tinch totuv yashashni orzu qilayotganlar ham yo‘q emas aslida. Aslida odamlar noshukurlik qiladi, chunki hayot tomonidan tag‘dim etilgan eng katta boylik ham shu aslida. Tinch yurtda yashashdan ko‘ra yana qanday orte qax baxt bo‘lsin. Tinchlik bu butun xalqni birlashtirib turadigan mustaqil va sinmas tilsim aslida. Tinchlik va farovonlik hukm surayotgan yurtda hech qachon qo‘rquv hissi bo‘lmaydi, chunki „Tinchlik“ qo‘rquvlarni uchqunini o‘chiruvchi tilsimdir. Tinch totuv eldangina aqlli, yetuk, o‘ziga

ishongan, qo‘rqmas, jasur yosh avlod tarbiyalanadi. Tinchlik deb zo‘ravonlik, ziddiyat yoki shu ziddiyatdan qo‘rquv yo‘q osoyishta holatga aytiladi. Tinchlik individual shaxslar yoki butun boshli mamlakat va xalqlar orasida bo‘lishi mumkin. Xalqaro munosabatlarda tinchlik atamasi ostida urush yo‘qligi tushuniladi. Mamlakatimiz Prezidenti SH.M.Mirziyoev tashabbusi bilan Toshkent shahrida 2018 yil 27 mart kuni Afg‘oniston bo‘yicha “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik”, 2021 yil 15-16 iyul kunlari “Markaziy va janubiy Osiyo: mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik, Tahdidlar va imkoniyatlar” hamda 2022 yil 25-26 iyul kunlari “Afg‘oniston: xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot” mavzuida o‘tkazilgan xalqaro konferentsiyalar – tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash sari tashlangan muhim qadamlar hisoblanadi.

Dunyo tinchligini saqlash uchun ikkinchi jahon urushidan keyin Birlashgan millatlar tashkiloti tuzilgan. Nobel mukofotii tinchlik keltirish yo‘lidagi sa‘y-harakatlar uchun ham beriladi. Tinchliksevarlik oqimlari mavjud, ulardan eng keng tarqalgani patfizim deb ataladi.

O‘zbekiston bu yana bir tinch yurtlardandir. Men o‘z vatanim haqida yozar ekanman faxr bilan ayta olamanki biz juda tinch yurtda yashaymiz. Ishonch bilan ayta olamanki o‘zbek xalqining ko‘zidagi qo‘rqmas shijoat bu yurtdagi tinchlik belgisi bo‘ladi. Hayotda turli xil dunyoqarashli odamlar bor va siz hamda men ham o‘shalardan bittasimiz desam xato bo‘lmas aslida. Bu yurtning bog‘-u adirlari tog‘u sahrolaridagi go‘zallikni o‘zga yurtdan topolmasangiz ham kerak, va bub go‘zallik tinchlik ramzi bo‘la oladi. Yangrasa musiqa yangrasin ammo hech qachon bombalar ovozi yangramasin bu yurtda! Aslida nega men bu gaplarni aytyapman? Axir hamma o‘z bilganidan qolmay noshukurlik qilishga odatlanganku. Tinchlikni qadriga yeting.

Falastin va Isroil o‘rtasida bo‘layotgan janglar butun dunyoni larzaga soldi desak xato bo‘lmaydi. Har bir to‘kilayotgan qonlar daryo bo‘lib oqiyapti lekin biz sezmayapmiz aslida. Bu ikki davlat o‘rtasidagi urush tinchlik yo‘q bo‘lgan joydagi muhitni yaqqol namoyon qilib beriyapti. Nahotki sezmayotgan bo‘lsangiz, har bir go‘dak hali yashash orzusi bilan bu dunyoga kelmaganmidi?

Albatta bu urush tinchlik havasi bilan hayotdan o‘tib ketayotganlar orzusini o‘ldiriyapti. Qonlar to‘kilayotgani natijasida boshqa Falastin va Isroilning tinchlikka bo‘lgan umidi so‘nib bormoqda. Bu bilan nima demoqchiman: qayerlardadir odamlar orzu qiladi tinchlikni chunki faqatgina tinchlik bu ularning dardiga malham bo‘la oladi.

Haliham yer talashishni to‘xtata ololmayotgan Ukraina va Rossiya Federatsiyasiga qaytsak. Uyerda ham bir kun suv o‘rniga daryolardan qon oqsa ajablanmayman. Janglardan bezib ketgan xalqdan so‘rang tinchlik qadrini, ular shunday tushuntirishadiki ko‘zingizga yosh keladi. Tinchlikga erishish uchun ikki katta va kichik davlat urushi aybsiz odamlarnin o‘lishiga sabab bo‘lmayaptimi, nega doimo odamlar ko‘zidagi qo‘rquv bilan yashashi kerak deb o‘ylaysiz? Ularning mamlakatida ham bahor o‘zi bilan bahoriy kayfiyatni olinb borar balki lekin urush hidi barini yakson qiladi.

Suriyada 2011-yildan beri davom etayotgan bu urush orqasida qancha odamlar turibti. Balki ulardagi yagona yetishmovchilik bu faqatgina tinchlikdir. Siz va biz qadriga yetmayotgan musaffo osmon va tinch diyorga ko‘plar zordir.

Avg‘oniston, Iroq va Yaman kabi davlatlar ham bulardan mustasno emas.

Tinchlikni qadriga yeting zero bu hammaga ham beriladigan narsa emas bu bebaho tilsimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.<https://uz.wikipedia.org/wiki/Tinchlik#:~:text=Tinchlik%2C%20xalqaro%20tinchlik%20%E2%80%94%20xalqlar%20va,munosabatlar%3A%20davlatlar%20o%CA%BCrtasida%20uyushtirilgan%20qurolli>

2.<http://www.insonhuquqlari.uz/oz/articles/tinchlik-uchun-kurashmo-kerak>

3.<https://parliament.gov.uz/ru/articles/506>